

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
KIMYO KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UO`K

5A140 502-Moddalar va materiallar kimyosi mutaxassisligi
2-kurs Magistranti Abdurazakova Shohsanam Nuriddinovnaning

MARRUBIUM TURKUMI O'SIMLIKLARINING KIMYOVIY TARKIBINI
O'RGANISH

mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun yozgan
DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar, K.f.d., prof.:
_____Ibragimov A.A

F a r g ' o n a -- 2017.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kimyo kafedrasining 2017 yil __ may oyidagi yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan:

_____sonli bayonnoma

Kimyo kafedrasining

mudiri: k.f.d. professor;

A.A. IBRAGIMOV.

Taqrizchilar:

FarPI OOT kafedra dotsenti;

M.Hakimov.

FarDU Texnika fanlari nomzodi

Kimyo kafedra dotsenti;

M.Nishonov.

M U N D A R I J A

	K irish	4
1-bob	Adabiyotlar tahlili	7
	1.1. Marrubium turkumi o‘simliklarining umumiy tavsifi	7
	1.2. Har bir aniqlangan marrubium turini kimyoviy tarkibi va fiziologik ta’siri to’g’risida ma’lumot	13
	1.3. Marrubium turlarining kimyoviy tarkibini solishtirish orqali turlar bo’yicha umumiy moddalar va har bir turlarga xos bo’lgan moddalarni aniqlash.....	17
	1.4. Fiziologik ta’sirini kimyoviy tarkibi bilan bog’lagan holda taxlil qilish.....	36
2-bob	Tajribadan va adabiyot taxlilidan olingan natijalarning muxokamasi	39
	2.1. Adabiyot taxlili muxokamasi.....	39
	2.1.1 Biologik faol moddalar miqdori.....	62
	2.1.2 Fiziologik faolligi.....	63
	2.1.3 Furanoditerpenoidlar qatorida labdane seriyali moddalarni sintezi, ba’zi o‘zgartirish va biologik faollik.	66
	2.2. Tajriba natijalari muxokamasi.....	69
3-bob	Tajriba qismi	72
	3.1. O‘simlikni aniqlagich kitoblardan tashqi qiyofasini aniqlash hamda botanik yordamida namunalarni topish.....	73
	3.2. Namunalarni ekstraksiya qilish.	73
	3.3. Ekstraktlarning tabiiy birikmalarga sifat va miqdor analizi.....	73
	3.4. Ayrim labdanoidlarning sintez metodikalari.....	74
	Xulosa.....	78
	Adabiyotlar ro‘yxati.....	79

Kirish.

Mamlakatni yanada rivojlantirishda fanning oʻrni va roʻlini kuchaytirishning muhim omili Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi togʻrisida”gi farmoni yurtimizda istiqloq yillarida birinchi prezidentimiz rahnamoligida olib borgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish boʻyicha ustuvor yoʻnalishlardagi vazifalarni amalga oshirish maqsadini koʻzda tutadi.[1]

Davlatimiz rahbarining ilm-fanga berayotgan eʼtiborini yanada yaqqolroq koʻrinishi 2017-yil 17-fevral kuni chiqarilgan Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisidagi qarorida oʻz ifodasini topdi. Xususan qarorda:

- tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar olib borish;

- ilm fanning taʼlim va ishlab chiqarish bilan integratsiya mehanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish;

- Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibida, Oʻzbekiston Milliy universiteti huzuridagi Polimerlar kimyosi va fizikasi ilmiy-tadqiqot markazi negizida Polimerlar kimyosi va fizikasi institutini tashkil etish toʻgʻrisidagi taklifiga rozilik berilishi, kimyo fani rivoji mamlakat taraqqiyotida muhim oʻrin tutishini tasdiqlaydi[2].

Kimyoviy mahsulotlar bugungi kunda sanoatning barcha tarmoqlarida keng qoʻllanilmoqda. Bu jihatdan polimer birikmalarga talab yanada ortmoqda. Xususan, tibbiyotda qoʻllanadigan materiallar orasida polimer materiallar aloxida muxim oʻrin tutadi: kateterlar, sistemalar, shpritslar, tibbiy uskunalarning butlovchi qismlari, dori vositalar, bir doza dorining taʼsir etish muddatini uzaytiruvchi polimer koʻndirmalar kabi soxalar shular jumlasidandir.

Kirish qismida ishning maqsadi, mavzuning dolzarbligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Ayni ishdan ko‘zlangan **maqsad**; Marrubium turkumi o‘simliklarini kimyoviy tarkibini, jumladan yuqori molekulyar komponentlarini ham o‘rganishdan iboratdir.

Dissertatsiya mavzusining **dolzarbligi** quyidagilar bilan belgilanadi. O‘simlik, hayvon va mikroorganizmlar tarkibidan ajratib olingan moddalar, ularning tuzilishi va fiziologik faolligi muntazam ravishda organizm va moddalar orasidagi uzviyligi to‘g‘risida tasavvurlarimizni kengaytirib kelmoqda. Ularning tirik organizmda bajaradigan vazifalaridan kelib chiqqan xolda, yangi effektiv dorilar yaratish imkoniyatlari kengayib boradi. O‘rganilayotgan o‘simlik Marrubium anisodon C.Koch.(M.alternides Rech. Fill.) –Lamiaceae (Labiatae) oilasiga mansub bo‘lib, ko‘p yillik o‘t sifatida ta‘riflanadi. Ruscha nomi Shandra ocherednozubaya, o‘zbek tilida esa “Qatortishli devortagio‘t” deb yuritiladi; dunyoning ko‘p joylarida keng tarqalgan, jumladan O‘zbekistonda ham uchraydi. O‘simlikshunoslar uni bejirim, turli sharoitlarga moslasha oladigan, xatto shaxarda ham ariq bo‘ylarida o‘sadigan xashaki o‘t sifatida tavsiflaydilar. Shu bilan bir vaqtda ushbu o‘simlik ekstraktlari xalq tabobatida nafas yo‘llari va bir qator boshqa xastaliklarni davolashda keng qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan ikki omil, ya’ni o‘tning keng tarqalishi va uning davolovchi xususiyatlari – tadqiqot natijalari foydali bo‘ladi degan fikrga olib keladi. Ushbu o‘simlik aynan Farg‘ona mintaqasidan nisbatan kam o‘rganilgan. Ammo dunyoda keng tarqalgan turlaridan adabiyotda o‘simlik tarkibida aminospirt xolin, alkaloid staxidrin, vitamin S, flavonoidlar, antotsianlar, efir moylari, bir qator diterpen sinfiga mansub moddalar mavjudligi to‘g‘risida e‘lon qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi. Ilgari kimyoviy tarkibi chuqur o‘rganilmagan mintaqadan, jumladan, Farg‘ona tumaning tog‘li joylaridan ham, Marrubium o‘tining sifat va miqdoriy analizi amalga oshirildi. Bir necha moddalar olindi va tavsiflandi. Dorivor o‘tning biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari sifatida ishlatish mumkunligi ko‘rsatildi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyaning tarkibi kirish qismi, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-bobda adabiyotlar sharhi berilgan, bunda o'simlik to'g'risidagi malumotlardan boshlab, undan ajratib olingan moddalar to'g'risida, ularning tuzilishi va ta'siri xaqida ma'lumotlar keltirilgan. II-bobda Dunyoda soxaga doir eng yangi original adabiyotlar ma'lumotlari bilan birgalikda olingan natijalar muxokamasi va taxlili berilgan. III-bob eksperimental qism bo'lib, xom-ashyoning sifat analizi, undan moddalar ajratib olish va tozalash jarayoni va natijalari, tabiiy birikmalarning identifikatsiyasi kabi masalalar yoritilgan. Ishning xulosa qismida tadqiqotning natijalari asosida qilingan xulosa va tavsiyalar berilgan. Adabiyotlar ro'yxatida ishga taaluqli ingliz, rus va o'zbek tilidagi maqola, monografiya, darslik va boshqa adabiyotlar tizimi keltirilgan. Adabiyotlar ro'yhati 68 nomdan iborat, Dissertatsiyaning hajmi 87 sahifani tashkil etadi.

1-bob. Adabiyotlar tahlili.

1.1.Marrubium turkumi o‘simliklarining umumiy tavsifi.

Asrlar davomida, o‘tlar va ziravorlar turli oziq-ovqatlarning lazzat va organoleptik xususiyatlarini oshirish maqsadida taomlarga qo‘shilgan edi. Aromatik o‘simliklar va ziravorlardan foydalanish asosan ularning neft(petroleum) efiri bilan olingan efir moylari fraksiyasi uning antimikroblik, spazmolitik, hepatoprotectorlik, virusga, saratonga qarshi ta’siri bilan bog‘liq. Bundan tashqari, ko‘plab tadqiqotlar ushbu fraksiyasining kuchli antioksidant ta’siri ham borligini ko‘rsatadi. Ziravorlar va o‘tlarning antioksidant ta’siri ular tarkibida turli fenol birikmalar mavjudligini ko‘rsatadi.


Katta Lamiaceae (Labguldoshlar) oilasi 233 dan 263 gacha avlodlar va 6.900 dan 7.200 gacha turlarni o‘z ichiga oladi. Marrubium L. o‘simligining Evropa, O‘rta Yer dengizi mintaqasi va Osiyoda taxminan 30 tur tarqalgan. [3].


O‘zbekistonda Labguldoshlar oilasini 28 turkum, 82 turi tarqalgan. Shundan Marrubium turkumini 1 turi Marrubium alternidens (anisodon) Rech. - Qatortishli devortagi o‘t o‘sadi. Labguldoshlar oilasini gul tuzilishi: gultojlari 4 bo‘lakli, bo‘laklari yassi, deyarli to‘g‘ri, faqat bitta bo‘lagi biroz kengaygan. Changchilari 2 ta gullari oq, gulkosachabarglari mevalash vaqtida tikanga aylanadi. Tugunchasi butun, ustunchasi esa tugunchaning ustiga o‘rnashgan [3].

Marrubium Lamiace-Shandra-Devortagio‘t turkumi turlari hamda Lamiaceae oilasiga mansub bir qator o‘simliklarni mualliflari qo‘llagan nomi. Bazilar yaxudiyilar tilida “mar”- achchiq va “rob” – ko‘p, ya‘ni “o‘ta achchiq” ma‘no bilan ham bog‘laydilar. K.Linney turkum nomini “Maria Urbs” (Latsiumdagi Fitsin ko‘li bo‘yidagi shahar) deb izohlagan[3].

Quyida keltirilgan rasmda (rasm 1) o‘simlik a‘zolarida aniqlangan modda turlari va ularning nisbiy miqdorlari ko‘rsatilgan. Keyingi rangli rasmlarda marrubiumni tabiiy o‘shish holati, yer kurrasida turkumning tarqalish areali hamda o‘simlik va uning a‘zolarini umumiy tavsifi keltirilgan.


Rasm 1. O'simlik a'zolarida aniqlangan modda turlari va ularning nisbiy miqdorlari.











1.2. Har bir aniqlangan marrubium turini kimyoviy tarkibi va fiziologik ta'siri to'g'risida ma'lumot.

1. Marrubium alyssonning o'simligining kimyoviy va biologik xossalari. Bu tur ko'p yillik 20 - 43 cm balandlikka ega bo'lib, poyasi oqish tusli. Efir moyi fraksiyasi patogen zamburug' va bakteriyalarga qarshi antimikrob faolligini tekshirildi. Bu tadqiqotlarda 256 mg/ml konsentratsiyada *Candida glabrata*, *C. albicans*, *C. parapsilosis* va *C. Kreuseiga* qarshi enterobakterial va antifungal faollikga ega ekanligini aniqlashdi. Lamiaceae oilasi ayrim turlarida oleanol va ursol kislotalari borligini aniqlash bo'Yicha Janicsak va boshqalar tadqiqot olib bordilar.

2. Marrubium astracanicum Eronda o'sadi. Bu o'simlik turini Morteza-Semnami va Saeedi efir moyi fraksiyasidan metilsiklopentan (15.5 %), timol (10.6 %) va n-geptan (7.4 %) asosiy komponentlarni identifikatsiya qildilar[5].Yaqinda o'tkazilgan tadqiqot natijasida Eronda 2700 m. balandlikda o'suvchi gullash bosqichida yig'ib olingan o'simlikdan yigirma to'rtta komponentni aniqladilar. Ularning asosiy komponentlari, germacrin D (23.4 %), seskviterpen (33.7%), bicyclogermacrin (11.9%) va spathulenol (6.8%), sesquiterpene gidrokarbon (72.3 %), sesquiterpenen (13.4 %) va monoterpen gidrokarbon (3.0 %) tashkil qiladi. Neft moyi fraksiyasi komponentlari o'rtasida ancha farq mavjudligini Teimori, Khavari-Nejad aniqladilar[6]. Bunga sabab, o'simlik yig'ish vaqti, quritish sharoiti, ajratish sharoiti, kimyoviy, geografik va iqlim omillari bo'lishi mumkin.

3. Marrubium Cordatum Nabelek o't o'simlik bo'lib, Anatolia, Kavkaz va Eron tog'larida tarqalgan[22]. M.Nebelek ustida olib borilgan tekshirishlar ushbu o'simlik metanol fraksiyasi ajratmasi erkin radikallardan xalos qilish xossasini ko'rsatdi.U standart antioksidantlarga nisbatan samaraliroq ta'sir etgan. Bunga sabab ajratmalar tarkibida polifenol tarkiblarning mavjudligi bilan tushuntiriladi. Bu natijalar ushbu o'simlik dorivor moddalar olish uchun istiqbolli manba sifatida qarashga imkon beradi.

4. *Marrubium Cylleneum* - janubiy Gretsiyaning mahalliy o'simligi. *Marrubium* avlodini tekshirish uni polifenollarga boy ekanligini va dastlabki tekshirishlar *M. cylleneum*ning metanol ajratmasi kuchli tyrosine faolligini namoyon qilishini Kariot, Protopappa, Megoulasva, Skaltsalar aniqladilar. Yuqorida tavsiflangan tarkiblarni biologik xossalarni aniqlash maqsadida olib borilgan tekshirishlar natijasida metanolti fraksiyadan olingan tarkiblar kutilgan yuqori sinergetik samara berishi aniqlandi [7].

5. *Marrubium Deserti Noe "Djaidi"* sifatida ma'lum. U yovvoyi o'simlik bo'lib, Aljirda o'sadi. 2009-yil Laouer H, Yabrir B, Djeridane A, Yusfi M, Beldovin N. Lamamra M. *Marrubium deserti de Noe* o'simligining kimyoviy tarkibi, antimikrob va antioksidant faolligini tekshirdilar. Natijalar o'simlikning yer yuza qismlari tarkibida bunday moddalar miqdorining pastligi (0.02 %) va biologik xossalarni namoyon qilmasligini ko'rsatdi [8].

6. Sarikurkcü, Tere, Dafereralar Turkiyadan yig'ilgan *Marrubium globosum* sp. Libanoticum turida metanol ajratmasi kuchli antioksidant faollikka egaligi, uning tarkibidagi ko'p miqdordagi fenol miqdori va diterpenlar ishtiroki bilan bog'liqligini ular potensial radikal neytrallovchilari sifatida e'tirof etildi[9].

7. *Marrubium Leonuroides* Desr. Shandra pustirnikovaya. Bo'yi 10-25 sm bo'lib Yevropa, Qrim, Kavkazda o'sadi. Popa va Salei *Marrubium leonuroides* Desr o'simligining fitokimyoviy tarkibini aniqladilar va peregrinol (labd-13-ene-9,15-diol) va r-lactone tutuvchi digidroperegrinin borligini xabar qildilar.

8. Markaziy va janubiy Yunonistonda o'sadigan mahalliy o'simlik *Marrubium velutinum* Karioti va Sedlo o'rgandilar. Christiane Meyre-Silva va Valdir Chechinel Filho ushbu tarkiblarning tyrosine ingibitor faolligini tekshirib flavonoidlar va feniletanoid glikozidlarning kojic kislotalarga nisbatan faolligi ancha pastligini kuzatdilar. Lignan diglikosid eng past faollikni namoyon qildi. Bu aftidan tirozin fermentining mis bilan xelat birikmalar hosil qilishi hisobiga gidroksil guruhlarining kamayib ketishi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Vanderjagt, Ghattas, Crossey, Glew ushbu o'simlik antioksidant faolligini, asosan uni tarkibida flavonoidlar, terpenlar va fenollar borligi bilan izohladilar[10].

9. *Marrubium vulgare* L.-Sh.obiknovennaya horehound Maromba yoki Marroio Braziliyada o'sadigan – ko'p yillik, bo'yi 30-50 sm gacha boradigan o't, novdasi oq rangli yopiq tuklar bilan qoplangan o'simlik. (1-rasm). Horehound iyundan 10 sentyabrgacha gullaydi. Marrubin yuqori hosildorlikka va turli xil biologik faolliklariga ega bo'lganligi uchun, bu modda yana tekshirish va yana muxokama qilishni taqozo etadi. 1842 yilda ushbu o'simlikni yer yuza qismlarini havoda 0.8 foiz quritilib tekshirish natijasida uni tarkibida furan labdane diterpene borligi aniqlangan.[20]. Har bir gramm labdan barglari va gullaridan eng yuqori miqdorda 4 mg gacha furan borligi aniqlandi. Ushbu diterpenni o'simlik organlarida yig'ilishi uning rivojlanish davriga bog'liq bo'ladi. O'simlik organlarida hech qanday furan labdane diterpenlar niholning 1-chi 4-5 haftasida yig'ilmaydi. Shu vaqt o'tgandan so'ng o'simlik barglari ancha tabaqalashadi va ularda yuqoridagi moddaning miqdori sezilarli ortadi. Yosh barglar va niholda ko'p miqdorda furan labdane diterpenlar yig'ilishi isbotlandi. Marrubiin to'planishini aniqlashga oid yaqin vaqtlarda olib borilgan tadqiqotlar bu tarkib biroz katabolik tavsifli, terapevtik maqsadda qo'llash mumkin bo'lgan va iqtisodiy jihatdan afzal ekanligidan dalolat beradi. [20]. Shuni ta'kidlash kerakki, marrubiin predmarrubiindan yuqori harorat va konsentratsiyali ajratmadan ajratib olingan. Yaxlit o'simlik fitopreparativ sifatida qo'llanilishi inobatga olinib tadqiqotlarda, marrubiin doimo predmarrubiin bilan birgalikda ishlab chiqarilishi ko'rsatilgan[21]. Berrougui, Isabelle, Cherkilar *Marrubium vulgare*ni hypolipidemic faolligi namoyish qilishini aniqladilar, ularni tarkibida fenilpropanoid glikosidlar va fenolli birikmalarni bo'lishi ushbu xossani beradi, LDL man qilinish (lipoprotein zichligi past) oksidlanishni, xolesterinni teskari tashilishini orttirish va yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olishni ta'minlaydi. [11]. Khanavi va boshqalar *M.vulgare* o'simlikni asosiy qismini tahlil qilib, unda e-farnesene (8.3 %) asosiy komponentini aniqladilar. Belhattab esa eugenol va 3-bisabolonni aniqladi. *Marrubium*ning farmokologik ta'sirlari xossasi borligi *Marrubium* avlodining ayrim turlarini an'anaviy va zamonaviy meditsinada turli kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan, antispazmatik, antidermatogenic [12,13],

analgetic, antimikrob ta'sirli dorilar tayyorlashda keng foydaniladi[14,15]. Ayniqsa antileikoblaster faollik va antileykemik faollik yaxshi o'rganilgan [16,17]. Marrubium labdane turlarida furan xalqasi saqlagan labdane diterpen tuzilishli marubin va marrubenol, feniletanoid glikosid, marruboside, feenilpropanoid efir, methoxylated flavones, kafeik kislota hosilalari, stirollar va flavanoidlar modda tuzilishini jiddiy o'zgartiruvchi faol moddalar borligini aniqladilar.

10. *Marrubium peregrinum* L. *Shandra chujezemnaya*. Bo'yi 30-60 sm bo'lib asosan markaziy Osiyo va janubiy-sharqiy Yevropada, shuningdek Turkiya, Kavkaz, Qrim, Dog'istonda keng tarqalgan. *Horehound - Marrubium peregrinum* L. (Lamiaceae) – to'g'ri burchakli novdaga ega bo'lgan 100 sm gacha bo'yga ega. Ildizlari yog'ochlashgan, barglari cho'ziq, gullari erkin xolda yig'ilgan. Bu o'simlik yana Yevropa va O'rta Osiyoda quruq yaylovlarda, qumliklarda tarqalgan va O'rta Yer dengizining floristik elementiga mansubdir. *M.peregrinum* tarkibida ko'plab fenol birikmalari va diterpenoidlar borligi, peregrinol diterpen spirti, diterpen gidroksid lakton peregrinin, ladanein, scutellarein-5,7,4-trimetil efiri, va scutellarein- 5,6,7,4-tetrametil efir borligini aniqlab isbotladlar [17]. Bundan avvalgi tadqiqotlarda faol va kuchli antioksidant ta'sirga ega bo'lgan, sesquiterpene uglevodorodlar ((3-caryophyllene, bicyclogermacrene va germacrene-D) va oksidlangan sesqu- terpenlar (spathulenol va caryophyllen oksidi) moddalar efir moyi tarkibida ham mavjudligi isbotlangan [18]. O'simliklardan olingan ikkilamchi metabolitlar biologik va farmokologik ta'siri jihatdan muxim ahamiyatga ega. Bu moddalar antioksidant, antiallergik, antibiotik, anti-kanserogen ta'sirga ega ekanligini Borneo, Katalinic, Mulabagal, Tsay va boshqalar o'z tadqiqotlarida ko'rsatib bergan [19].

11. *Marrubium Anisodon* C.Koch (*M. Alternidens* Rech.fil.). Bo'yi 30-100 sm ko'p yillik o't. Poyasi bir nechta, oddiy yoki shoxlangan. Barglari dumaloq, qalin tukli. Gullari doirasimon to'pgul hosil qiladi. Guljoji oq, may –sentabr oylarida gullab urug'laydi. Bo'sh yotgan yerlar, devorlar tagida yo'l yoqalarida o'sadi. Aynan biz o'rganan turi bo'lib , Farg'onada uchraydi. Bundan tashqari

Kavkaz, Orol va Kaspiy dengizi, Qoraqum, Qizilqum, Amudaryo bo'ylarida tarqalgan. Qozog'istonda yaxshi o'sadi.

12. *Marrubium catariifolium* Desr. Bo'yi 15-45 sm. Asosan Kavkazda tarqalgan.

13. *Marrubium praecox* janka Sh.ranya. Bo'yi 30-60sm. Yevropa, Dnepr, Moldava, Qrim, Kavkazda tarqalgan.

14. *Marrubium Bourgaei* Boiss. Ssp. *Caricum* P.H. Turkiyada va g'arbiy Osiyoda o'sadi.

15. *Marrubium Frivaldskyanum* Boiss- Bolgariyada o'sadigan mahalliy daraxt. Uning yashash muhiti o'rtacha harorat 20C va yuqori davriy yog'ingarchiliklar 600 mm bilan tavsiflanadi.[23].

16. *Marrubium.Parviflorum* subsp. *Oligodon* – ko'p yillik o't, Turkiyada qoyalarda, qiyaliklarda va cho'llarda o'sadi.

17. *Marrubium Mnogo Don* Boiss Sharqiy Iroqning Sulaymayyah viloyatida

18. *Marrubium Thessalum* Boiss. Markaziy va Shimoliy Gretsiya (Makedoniya), janubiy Albaniyada o'sadigan mahalliy o'simlik.

19. *Marrubium trachyticum* Boiss. Bu tur Markaziy Anatoliya va Bolgariyada o'sadigan mahalliy o'simlik[23].


1.3. *Marrubium* turlarining kimyoviy tarkibini solishtirish orqali turlar bo'yicha umumiy moddalar va har bir turlarga xos bo'lgan moddalarni aniqlash.

1. *Marrubium Vulgare* bargidan birinchi marta 1842 yilda diterpenoid ajratib olingan va tavsiflangan. Bu o'simligi avlodi fitokimyoviy tarkibi asosan diterpenlar, polifenollar, steroidlar, fenilpropanoidlar va flavonoidlardan iborat bo'lib, ularning ayrimlari muxim biologik xossalarni namoyon qiladi.


2. *Marrubium alysson* L. o'simligining kimyoviy tarkibi va xossalari. Farmakognostik o'rganish natijasida uning tarkibidan β -sitosterin glikozid (1), xolin (2), va tri flavonoidlar pigenin-7-O-arabonoside (3), apigenin (4) va apigenin-7-O-glucoside (5) ajratib olingan. [21,22]. Diterpenlardan 6-acetyl-

marrubenol (6), premarrubenol (7), 6-acetyl-premarrubenol (8), marrubiin (9) va marrubenollarni (10) ajratib olindi [23]. Bu o'simlikni yer yuzasidagi organlarida fenilpropanoid glikoside, alyssonoside (11), verbascoside (12), leucosceptoside (13), portyattynoside (14), forsythoside B (15) va leucosceptoside (16) borligi aniqlangan. Ursol va oleanol kislotalari konsentratsiyasi M. Alysson o'simligida tegishli ravishda 0.009 va 0.014% ni tashkil qilishi aniqlandi. Bu moddalar muxim biologik faollikga ega bo'lib, tuzilishlari ham o'xshashdir[27]. Bu turni rivojlanishining turli bosqichlarida o'rganish uning tarkibida taninlar, flavonoidlar, fenollar, alkaloidlar, kumarinlar, saponinlar borligi aniqlandi. Asosiy tarkiblar gullash va meva hosil qilish bosqichlarida topildi.


3. Marrubium Astracanicum Jacq. Eronda o'sadi[27]. Bu o'simlikni yer yuzasidagi organlaridan ikkita diterpenoidlar, marrubinonlar ajratib olindi (17) va (18) .




- (3) R₁=H; R₂=OH; R₃=H; R₄=O-arabinose; R₅=H; R₆=H; R₇=OH; R₈=H
 (4) R₁=H; R₂=OH; R₃=H; R₄=OH; R₅=H; R₆=H; R₇=OH; R₈=H
 (5) R₁=H; R₂=OH; R₃=H; R₄=O-glucose; R₅=H; R₆=H; R₇=OH; R₈=H




(6) R₁=H; R₂=acetyl




(7) R₁=H; R₂=H




(8) R₁=H; R₂=acetyl



(9)



- (11) R₁=H; R₂=Me; R₃=OMe; R₄=H; R₅=apiose; R₆=H
 (12) R₁=H; R₂=H; R₃=OH; R₄=H; R₅=H; R₆=H
 (13) R₁=H; R₂=Me; R₃=OH; R₄=H; R₅=H; R₆=H
 (14) R₁=Me; R₂=Me; R₃=OH; R₄=H; R₅=H; R₆=H
 (15) R₁=H; R₂=Me; R₃=O-apiose; R₄=H; R₅=H; R₆=H
 (16) R₁=Me; R₂=Me; R₃=O-glucose; R₄=H; R₅=H; R₆=H



M.astracanicumning havoda quritilgan barglari distillyasiya qilinib, gazli xromatografiya usuli bilan aniqlanganda efir moyli ajratmada 97.5 % to‘liq komponentli 25 ta tarkib topildi. Asosiy komponentlar caryophyllene oksidi (35.8 %), citronella (16.9 %) va beta-caryophyllene (13.1 %) [29]. Boshqa mualliflar 86.5 % neft (moyi) ajratmasidan yetmish ikkita komponentlarni aniqladilar. Asosiylar beta-caryophyllene (21.2 %) va valeranone (5.4 %) . O‘simlik kimyoviy tarkibi dastlab uning yer ustki organlaridan neft moyi yordamida ajratib olingan distilliatni tekshirib o‘rganilgan. Suvli distillatda 46 ta tarkib aniqlangan bo‘lib, uning asosiy elementlari, beta-caryophyllene (23.2 %), (Z) -beta- farnesene (13.5 %) va germacren D (10.3 %) ni tashkil qildi [28].

Xuddi shunday izlanishlar,neft moyi (90.7%) erituvchisida o‘tkazilganda 78 ta asosiy komponentlar borligi aniqlandi. Geksadekonik kislota (33.3 %) va geksagidro- farnetsil atseton (6.4 %) asosiy elementlar (tanlovchilar) bo‘lib xizmat qildi.O‘tkazilgan tadqiqotlardagi farq asosan ikki omilga bog‘liq bo‘lishi mumkin: o‘simlik joylashgan joyi va balanligi. Turkiyada yig‘ilgan o‘simlik 2300-2500 m. balandlikda o‘sgan .

4. *Marrubium cuneatum* Soland. Bu o‘simlik yer ustki organlarini neft moyi erituvchisida o‘rganish unda 25 tarkib borligini ko‘rsatdi, asosiy aniqlangan moddalar bicyclogermacrene (37.9 %) va germacrene D (24.1 %) ni tashkil qildi. Grassia va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar germacrene D miqdori (15.6 %) ni tashkil qilib, u kuchsiz antimikrob faollikni namoyon qilishini ko‘rsatdi [29].

5. *Marrubium cylleneum* Boiss. I Heldr o‘simlikning yer yuza qismlari dixlormetanli fraksiya ajratmasida 18.15% diterpen(9) ajratib olindi va

identifikatsiya qilindi. Ladanein va marrubiin izomerlari aralashmalarining ajralmas qismi sifatida Cyllenine (20) va 15-epi-cyllenine (21) ajratib olindi .


M. Cylleneum o'simligining yer yuza qismlari metanol ajratmasidan olingan quyidagi: 5,6,7,8,4-pentahydroxyflavone(22), quercetin (23), luteolin-7-O-glucoside (24), kaempferol-3-O-glucoside (25), kaempferol-3-O-D-rutinoside (26), kaempferol-3-O-(6-E-pCm) -glucoside (27), quercetin 3-O(6 -O-E-p-coumaroyl) D-glucopyranoside(28), apigenin-7-O-(6 -E-pCm)-glucoside (29), 4-O-lariciresinol-glucoside (30), coumaric (31) kislota, chlorogenic kislota (32), phaselic kislota (33), e-ferulic kislota (34) va e-isoferulic kislota (35)larni ajratib olganligini xabar qildilar. Bundan tashqari, ko'pchilik tarkiblarni fitokimyoviy tadqiq qilish, ular stachydrine(36), oddiy alkaloid sifatida identifikatsiya qilinganligini ko'rsatdi [7].

M.Cylleneum o'simligi yer yuza qismlari dixlormetanli fraksiyasini qo'shimcha fitokimyoviy tadqiqot qilish uchta boshqa diterpenoidlar, shuningdek cyllenine C (37) borligini ko'rsatdi, u labdane xususiyatlariga ega bo'lgan yangi nor-diterpenoid hisoblanadi. 15-methoxycyllenin (38) va 15-methoxy-15-epi-cyllenin (39) tarkiblar ham M. globosum ssp. Liba-noticum dan ajratib olingan. [30]. Ayrim diterpenoidlar o'smaga qarshi , cytotoxic faollikka ega bo'lgan tarkiblar (37) va (38) sifatida baholangan. Ammo, ko'krak, ensa raklariga qarshi va melanomasga qarshi sitokik samara bermadi va tarkib (38) umuman barcha sinovlarda ta'sir ko'rsatmadi [30].


6. Marrubium deserti de Noe ex Coss-bu turida 36 ta komponentlar topildi; asosiy sinf sesquiterpenoidlar (67.5%) va fraksiyaning asosiy komponenti germacren (54.7%) bo'ldi. Bu natijalar – avvalgi tadqiqotlarga muvofiq. Marrubium avlodi, M.velutinum tipi (71.7%), M.peregrinum (73-65,5%), M. cuneatum (78.9 %) va M.vulgare (43%). Bundan tashqari, ancha miqdorda boshqa tarkiblar p-bourbonene (4 %), 6-cadinene (3.8%), a-copaene (3.5%) va p-element topildi.

7. Marrubium frivaldskyanum Boiss prefuranic labdane yer yuza qismlaridan preregrinine deb nomlangan diterpene (40) ajratib olindi . Ushbu tur er yuza qismlari bilan o'tkazilgan fitokimyoviy tadqiqot natijasida , birinchi marta


diterpene; marru- biglobosin (41), va ikkita ma'lum tarkib marrubiin (9) va marrubinone B (18)ni ajratib olindi. Boshqa tadqiqotda, uchta yangi labdane diterpenoidlar yer yuza qismlari atseton ajratmasidan, (13, R) -9a, 13a-epoxylabda-6




(20) $R_1 - OH; R_2 - H$
 (21) $R_1 - H; R_2 - OH$




(22) $R_1 - H; R_2 - OH; R_3 - OH; R_4 - OH; R_5 - OH; R_6 - H; R_7 - OH; R_8 - H$
 (24) $R_1 - H; R_2 - OH; R_3 - H; R_4 - O\text{-glucose}; R_5 - OH; R_6 - OH; R_7 - OH; R_8 - H$




(27) $R_1 - H; R_2 - OH; R_3 - H; R_4 - OH; R_5 - H; R_6 - H; R_7 - OH; R_8 - H$




(30) $R_1 - \text{glucoside}; R_2 - H$




(31) $R_1 - H; R_2 - OH$
 (34) $R_1 - OCH_3; R_2 - OH$
 (35) $R_1 - OH; R_2 - OCH_3$




(32)




(33)




(36)



(37)



(38) $R_1 - H; R_2 - OCH_3$
 (39) $R_1 - OCH_3; R_2 - H$






(40)

(19), 16 (15) -diol dilactone (42), deacetylvitexilactone (43), marrulanic kislota (44) va to'rtta avval ma'lum tarkib: marrulibanoside (45), (135) - 9R, 13R-epoxylabda-6(19), 16 (15) -diol dilactone, cyllenin (20), va 15-epi-cyllenine (21) ajratib olindi .

8. *Marrubium globosum* Montbr. I Auch .Ushbu tur yer yuza qismlari bilan o'tkazilgan fitokimyoviy tadqiqot natijasida, birinchi marta diterpene; marrubiglobosin (41), va ikkita ma'lum tarkib marrubiin (9) va marrubinone B (18)ni ajratib olindi. Boshqa tadqiqotda, uchta yangi labdane diterpenoidlar yer yuza qismlari atseton ajratmasidan, (13, R) -9a, 13a-epoxylabda-6 (19), 16 (15) -diol dilactone (42), deacetylvitexilactone (43), marrulanic kislota (44) va to'rtta avval ma'lum tarkib: marrulibanoside (45), (135) – 9 R, 13R-epoxylabda-6 (19), 16 (15) -diol dilactone, cyllenin (20), va 15-epi-cyllenine (21) ajratib olindi .


9. *M.globosum* ssp. *Libanoticum* o'simligi yangi materiallari bilan o'tkazilgan fitokimyoviy tadqiqot metanol ajratmasida ko'pgina fenol birikmalari verbascoside (12), isorhamnetin 3-O-3-D-rutinoside (46), quercetin 3-O-p-rutinoside (47), naringenin 7-O- D-glucoside (48), kaempferol 3-O-D-rutinoside (26), quercetin 3-O-D-glucoside (49), apigenin 7-0-(3-p-coumaryl) -glucoside (50), methoxy- cinnamic (51) kislota, kaempferol 3-O-D-glucoside (25) va apigenin 7-O-p-D-glucoside borligini ko'rsatdi(5) [9]. Ushbu verbascoside (12) va quercetin (23) birikmalar *M. vulgare* va isorhamnetin *M. Velutinum* o'simligi boshqa turlaridan ham ajratib olindi. *M. globosum* ssp. *Globosum*, Turkiya dorivor o'simligi yer yuza qismlari bilan o'tkazilgan fitokimyoviy tadqiqot tarkibida, marrubiglobosin (41), marrubiin (9) va marrubinone B (18) borligini ko'rsatdi. Marrulibanoside (45)ni kalamushga yuqtirilib biologik tadqiqot qilish, antioksidant samaraga ma'sul ega bo'lgan asosiy komponent carrageenin- NOS va COX-2 faollikni man qilish oqibati ekanligini ko'rsatdi. Avval, ushbu mualliflar yer yuza qismlari xloroform ajratmasidan ajratib olingan marrulibacetal (52), yangi labdane diterpene antiepatmodik faollikka sabab bo'lishi mumkinligini tekshirdilar. Ushbu ajratmadan, avval ma'lum diterpenoidlar va to'rtta yangi

tarkib: 13-epicyllenin (53), 13,15-diepicyllenin (54), marrulibacetal (52), va marrulactone (55) ajratib olindi [9].




(46) $R_1 = O\text{-rut}$; $R_2 = OH$; $R_3 = H$; $R_4 = OH$; $R_5 = H$; $R_6 = OCH_3$; $R_7 = OH$; $R_8 = H$
 (47) $R_1 = O\text{-rut}$; $R_2 = OH$; $R_3 = H$; $R_4 = OH$; $R_5 = H$; $R_6 = OH$; $R_7 = OH$; $R_8 = H$


(50) $R_1 = H$; $R_2 = OH$; $R_3 = OH$; $R_4 =$




(48)




$R_5 = H$; $R_6 = H$; $R_7 = OH$; $R_8 = H$



(51)




(52)



(53) $R_1 = OH$; $R_2 = H$

(54) $R_1 = H$; $R_2 = OH$




(55)

10. *Marrubium incantum* Desr. *M. Incantum* o‘simligi yer yuza qismlari neft(moyi) fraksiyasi, *S. aureus*, *S. Epidermidis*, *Micrococcus flavus*, *enterococcus faecalis*, *e. coli*, *Klebsiella pnevmaniyaga*, *P.aeruginosa* va *Candida albicans* faolligiga qarshi qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi. Asosiy komponentlar (E) - caryophyllene (27 %), germacrene D (26.2 %) va bicyclogermacrene (11.5 %).

Triterpenes oleanolic (56) va ursolic kislotalar (57)-Lamiaceae oilasining haqiqiy elementlari hisoblanadi. Ularni miqdoriy tarqalishi bo‘yicha yetarli ma’lumotlar yo‘q. Miqdoriy tadqiqotlar faqat bir necha turlarda o‘tkazilgan xolos. Ushbu jihatlarni inobatga olib, Janicsak va boshqalar [27] ayrim turlardagi ushbu moddalarni ishtirokini tekshirdilar va *M.Incantum* turida oleanolic kislota uchramasligi va faqat oz miqdorda ursolic kislota (0.008%) borligini aniqlaganlar[27].

11. *M.Parviflorum* subsp. *Oligodon*–ko‘p yillik o‘t, Turkiyada u qoyalarda, qiyaliklarda va cho‘llarda o‘sadi. Ushbu o‘simlikdan 96.8 %li to‘liq neft moyli fraksiyasidan 51 ta komponent ajratib olingan. Unda ko‘p miqdorda sesquiterpenlar (77.8 % va 82.5 %), bicyclogermacrene (26.3 %), germacrene D (21.5 %) va P-caryophyllene (15.6 %) asosiy elementlar bor. Ushbu o‘simlik bilan o‘tkazilgan fitokimyoviy tadqiqot uning tarkibida fenol tipidagi apigenin-7-O-glucoside (5), anatonione (59), a-amyrin (60), va (61) p-sitosterol, phytosterol terpenlari borligini ko‘rsatdi.



12. *Marrubium peregrinum* L o‘simligida quyidagi kimyoviy moddalar uchraydi. Diterpenoid: peregrinol, peregrinin, tetragidroperegrinin, fitol. Steroid: β -sitosterin. Flavonoid: 5,6,7,4- tetrametoksiflavon. Yuqori yog‘ kislotalari palmitin, stearin, olein, lanolin. Ular: to‘rtta diterpenoidlar: peregrinine (40), peregrinol (19), marrubiin (9) va premarrubiin (62) va oltita fenol tipidagi tarkiblar: 4,5,6,7- tetrametoksoflavone (63), apigenin (4), kaempferol (64), apigenin-7-O-glucoside (5), luteolin-7-O-glucoside (24) va acteoside (12) saqlaydi[31].

M. peregrinum kimyoviy tarkibi keng o‘rganilgan. Oliy peregrinum barglari neft moylari fraksiyasi murakkab va o‘zgaruvchan tarkibga ega bo‘lib, 0,1% ni tashkil qiladi. Eng ko‘p monoterpenlar: α -pinen, sabinen, limonen, camphen va α -terpinolen. Yunon namunasida, P-phellandren, epi-bicyclosesquiphellandren va bicyclogermacren eng ko‘p chiqdi. Markaziy Yevropadan yig‘ilgan o‘simlik namunasi neft moyi fraksiyasi P-caryophyllene va uning oksidiga boy ekanligi aniqlandi, shuningdek uning tarkibida bicyclogermacren va germacren D moddalar ko‘proq miqdorda mavjud ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Gretsiyada yig‘ilgan *M. peregrinum* o‘simlikning neft(moyi) ajratmasida p-phellandrene, epi-bicyclosesquiphellandrene va bicycloger-macrene asosiy tarkiblar sifatida borligini ko‘rsatdi, Markaziy Yevropadan yig‘ilgan namuna p-caryophyllene va uning oksidi, bicyclogermacrene va germacrene D ga boy bo‘lib chiqdi. *M.peregrinum* gullari dixlormetan ajratmasi fitokimyoviy tarkibidan oltita moddalar ladanein (65), 6-hydroxy- 5,7,4 ‘-trimethoxyflavone (66), 5,6,7,40-tetramethoxyflavone (63), marrubiin (9), cyllenin (20) va 15- epi-cyllenin (21) izomerlari aralashmasi ajratib olindi.[23]. Ushbu o‘simlik yer yuza qismlari metanol ajratmasidan, beshta acteo- storona (12), forsythoside B (67), arenarioside (68) i terniflorine (apigenin-7-0- [600-E-p-coumaroyl] p-D-glucopyranoside) tarkib ajratib olindi (69). Ballotetroside (70) suvli ajratmadan olindi. Biroq ushbu tarkiblarning barchasi Lamiaceae o‘simligidan ajratib olingan edi, faqat 5,6,7,40-tetrametoksiflavone (63), marrubiin (9) va acteoside (12) avval *M. peregrinum* o‘simligidan ajratib olingan. Oleanolik (56) va ursolik (57) kislotlar miqdorini aniqlash tegishli


ravishda 0.036 va 0.040 % ekanligini ko'rsatdi, biroq ushbu miqdor, boshqalarga nisbatan ancha yuqoridir. Suv, metanol, ethyl atsetat, atseton va petrolein efirning ajratmalari fenollarning umumiy miqdori, flavonoid konsentratsiyasi va antioksdant faollikni aniqlash uchun tayyorlandi. Quruq o'simlikdan 10 g dan olinib, undan qaysi erituvchida eng ko'p miqdor qattiq qoldiq olinishi aniqlandi. Eng ko'p miqdor qattiq qoldiq suv yoki metanol erituvchilardan foydalanilganda olindi.

Fenollarning umumiy miqdorini aniqlash Folin-Siokaltea kislotaning gal ekvivalentida ifodalangan reaktividan foydalanishni taqozo etadi, (standart tenglama chizig'i: $u = 7.026x - 0.0191$, r^2 dan 0.999 gacha). Fenollarning umumiy miqdori mg GA/G ajratma orqali ifodalandi.


Fenollarning umumiy miqdori tekshirilgan ajratmalarda 27.44 dan 49.27 mg GA/g. Gacha oraliqda joylashdi. Eng yuqori fenolning konsentratsiyasi metanol, atseton va suvli ajratmalarda kuzatildi. Etil atsetat va efirning neftli ajratmasida fenol konsentratsiyasi ancha past. M.Peregrinum o'simligi turidagi ajratmalar tarkibidagi fenollar miqdori ajratma xiliga, ya'ni qo'llanilgan erituvchilar qutbliligiga bog'liq.

Dastlabki farmakologik tadqiqotlar o'simlik gullaridan olingan fenol tarkibli moddalarning kampferol (64), apigenin (4), apigenin-7-O-glucoside (5), luteolin-7-O-glucoside (24), va ver-bascoside (12)larning vitro antilipoperoxidative faolligi, kalamushlar miyasi liposomesdan ajratib olingan stobadinga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi .

13. Marrubium Mnogo Don Boiss- Sharqiy Iroqning Sulaymayyah oblastida o'sadi. Uning yer yuza qismlari metanol ajratmasidan labdane diterpene, 9a, 13R; 5,16-diepoxy-12-oxo-labd- 14-en- 19,6p-olide (polyodonine) (71), 3-O-(P-D-gluco- pyranosyl) -3p-hydroxystigmast-5-ene (72) va flavone gluco- storon 7-O-1-D-(6-O-p-coumaroyl)-glucopyranosyl]-apigenin(73) va 7-O-1, p-O- (3,6-di-O-p-coumaroyl) -glucopyranosyl] -apigenin (74) lar ajratib olindi.




(62)



(63) R₁-H; R₂-OCH₃; R₃-OCH₃; R₄-OCH₃; R₅-H; R₆-H; R₇-OCH₃; R₈-H


(65) R₁-H; R₂-OH; R₃-OH; R₄-OCH₃; R₅-H; R₆-H; R₇-OCH₃; R₈-H

(66) R₁-H; R₂-OCH₃; R₃-OH; R₄-OCH₃; R₅-H; R₆-H; R₇-OCH₃; R₈-H




(67) R₁-H; R₂-H; R₃-OH; R₄-OH; R₅-apiose; R₆-H


(68) R₁-H; R₂-H; R₃-H; R₄-H; R₅-beta-D-xylose; R₆-H



(69) R₁-H; R₂-OH; R₃-H; R₄-



(70) R₁-H; R₂-H; R₃-OH; R₄-H; R₅-beta-D-apiose; R₆-alpha-L-arabinose




R₅-H; R₆-H; R₇-OH; R₈-H

Bu o'simlikning antimikrob faolligi o'rganildi. Sesquiterpene lactone va alkaloid fraksiyasi Gram-musbat (+) bakteriyaga qarshi antimikrob faollik namoyon qildi.

14. *Marrubium propinquum* Benth yer yuza qismlaridan, 17 komponent 96 % spirtli eritmadan ajratib olindi, suvli distilliat tavsiflandi. Neft(moyi) erituvchisida sesquiterpenlar yuqori miqdorda kuzatildi (92.8%). Asosiy komponentdari p-famesene (43.8 %), p-caryophyllene (20.1 %) va germacrene D (15.8 %) [33].

15. *Marrubium Radiatum* Delile Benth tarkibi tekshirilganda unda fenol birikmalari miqdorini yuqori ekanligini ko'rsatdi. Tarkib (80.5 mg/g) Folin-Ciocalteu [34] metodi bilan aniqlandi.



Geksanli fraksiya sabinene, v- terpineneas, etil linoleat, tricosan, stigmast-5-en-3-ol (75) borligini ko'rsatdi[34]. Metanol ajratmasidan ajratib olingan a-amylase (IC50 61.1) va p-gluosidase (IC50 68.8). A-amylase va p-gluosidase eng yuqori antioksidant xossasini namoyon qildi. Bu xolat ajratmalar tarkibida qutbli tarkiblar bilan bog'liqdir. Ammo geksan va xloroform ajratmasi bunday faollikni namoyon qilmadi, ayni paytda yaxshigina faollikni p-gluosidas ko'rsatdi.

16. *Marrubium sericeum* Boiss sericeum, marrubenol va premarrubenol, shuningdek marrubiin (9) va marrubenol (10) .

17. *Marrubium supinum* var. *Boissieri* Rouy M. *Supinum* daraxt ko'p yillik o'simligi. Bu turdan premarrubenol derivate (76), marrubenol (10) va marrubiin (9) lar ajratib olingan .

18. *Marrubium thessalum* Boiss. Helder-bu turning yer yuza qismlari dixlormetan ajratmasidan to'rtta yangi va to'rtta avval ma'lum labdane diterpen va bitta flavon moddalar ajratib olindi. Ular quyidagilar: marrubiin (9), 13R-preperegrinin (77), 9a, 13R-15,16-bisepoxy-15a-hydroxy-3-oxo-la bdan-6p, 19-olide (78), 9a, 13R-15,16-bisepoxy-15p-hydroxy-3-oxo-la bdan-6p, 19-olide (79) va flavon labdanein (65) va yangi diterpenlar tipa 13S-preperegrinine (80), 3a-hydroxymarrubiin (81), 9a, 13R-15,16-bisepoxy-15p-metoksi-3-oxo-labdane-6p-19-olide (82) va 15-methoxyvelutine (83). Boshqa birikmalar (9), (77) va (80), o'simlik asosiy metabolitlari bo'lib, ozroq miqdorda ajratib olindi. Bu tadqiqotlar ushbu tur o'simligini kimyoviy tarkibini o'rganish bo'yicha birinchi izlanish edi. Bundan avvalgi kimyoviy tarkibni o'rganishga oid ishlarda bu o'simlikda oz miqdorda oleanol va ursol kislota, 0.009 va 0.017 %, mos ravishda borligini ko'rsatilgan. [19].


19. *Marrubium trachyticum* Boiss uning yer yuza qismlari atseton ajratmasidan ikki diterpenoid birikmalar *marrubium velutinum* Sibth. va Sm. marrubiin (9), flavonoid aglycone, va ladanein (6-gidroksi apigenin 7, 4 o-dimetil eter) (65) ajratib olingan .

20. *Marrubium velutinum* - uning yer yuza qismlari metanol ajratmasining fitokimyoviy tarkibini o'rganib tahlil qildilar. Ular o'n bir flavonoidlar va to'qqiz fenilet moddalar bo'lib quyidagilar edi: chrysoeriol 7-O- (3,6-di-O-E-p-coumaroyl) -p-D-glucopyranoside (84), apigenin 7-O-(3,6-di-O-E-p-coumaroyl) p-D-glucopyranoside (85), apigenin 7-O- (3-O-E-p-coumaroyl)-p-D-glucopyranoside (86), rhamnetin 3-O- (6-O-E-p-coumaroyl) -p-D-glucopyranoside (87), quercetin 3-O- (6-acetyl) -p-D-glucopyranoside (88), isoquercitrin (89), kaempferol-3-O-p-D-rutinoside (26), isorhamnetin 3-O-p-D-rutinoside (90), chrysoeriol (91), isorhamnetin 3-O-p-D-glucopyranoside (92), isorhamnetin 7-O-(6-O-E-p-coumaroyl) -p-D-glucopyranoside (93), acteoside (12), leucosceptoside (13),


echinacoside (94), forsythoside B (15), alyssonoside (11), stachyoside (95), 2-(3-hydroxy-4-methoxyphenyl) etil-O-[α -L-rhamnopyranosyl-(13)] -O [[3-D-glucopyranosyl- (16)]-4-O-feruloyl-p-D-glucopyranoside (96), velutinoside (97) va velutinoside (98).

M. velutinum yer yuza qismlari dixlormetan ajratmasidan to'qqizta diterpenlar ajratib olindi. Ular peregrinine (40), marrubinone B (18), 9a, 13R-15,16-bisepoxy-15a-gidroksi-3-oxo-labdan-6p, 19-olide (78), 9a, 13R:15, 16-bisepoxy-15-gidroksi-3-oxo-labdan-6p, 19-olide(79), velutine (99), 15-epi-velutine (100), velutine B (101), 15-epivelutine B (82) va velutine C (102) ajratib olindi. [32]


Uzoq muddat olib borilgan fitokimyoviy tadqiqotlar bu o'simlikni tarkibida ba'zi flavonoidlarni ko'rsatdi. flavonoidlar, flavones, acylated glycoside flavones, flavonols, flavonol glycosides, phenylethanoid glycosides, lignin glycosides va quyidagi fenol kislotalari: Apigenin(4), chryso-eriol (93), 5,6,7,4-tetramethylscutellarein (103), 5,7,4 -trimethyl- scutellarein (104), labdanein (65), isorhamnetin-3-O-glucoside (46), nikotiflorin (105), quercetin-3-O-rutinoside (47), 6-OH-kampferol-3-O-rutinoside(106), kaempferol-3-O-(6-EpCm)-glucoside(27), isorhamnetin-3-O-(6'-OAc)-glucoside(107), isorhamnetin-3-O-(6-E-pCm)-glucoside (108), apigenin-7-O- (3,6-di-E-pCm) - glucoside (109), chrysoeriol, 7-O- (3,6-di-E-pCm)-glucoside(110), acteoside (12), leucosceptoside (13), martynoside (14), echinacoside (96), 6-glucosyl-martynoside (111), forsythoside B (15), alyssonoside (11), lavandulifolioside (112), stachyoside D (97), lamiophomisine (113), velutinoside IV (114), velutinoside-1(99), velutinoside -2 (98), velutinoside III (115), cistanoside F (116), chlorogenic kislota (32), phaselic kislota (33), 4-O-lariciresinol- glucoside (30), 4-O-lariciresinol-glycoside (30), 4,4-O-lariciresi- nol-bis-glycoside (117) va stachydrine (36) borligini ko'rsatdi.



(84) R₁ = H; R₂ = OH; R₃ = H; R₄ =




(85) R₁ = H; R₂ = OH; R₃ = H; R₄ =



(90) R₁ = O-rut; R₂ = OH; R₃ = H; R₄ = OH; R₅ = H; R₆ = OCH₃; R₇ = OH; R₈ = H

(91) R₁ = H; R₂ = OH; R₃ = H; R₄ = OH; R₅ = H; R₆ = OCH₃; R₇ = OH; R₈ = H




(94) R₁ = H; R₂ = H; R₃ = OH; R₄ = OH; R₅ = glucose; R₆ = H


(95) R₁ = H; R₂ = CH₃; R₃ = OCH₃; R₄ = OH; R₅ = H; R₆ = arabinose

(97) R₁ = H; R₂ = H; R₃ = OH; R₄ = OH; R₅ = glucose; R₆ = arabinose


(98) R₁ = H; R₂ = H; R₃ = OCH₃; R₄ = OH; R₅ = glucose; R₆ = arabinose




(99) $R_1 = \text{OH}; R_2 = \text{H}$
 (100) $R_1 = \text{H}; R_2 = \text{OH}$




(101)




(102)




(103) $R_1 = \text{H}; R_2 = \text{OCH}_3; R_3 = \text{OCH}_3; R_4 = \text{OCH}_3; R_5 = \text{H}; R_6 = \text{H}; R_7 = \text{OCH}_3; R_8 = \text{H}$
 (104) $R_1 = \text{H}; R_2 = \text{OCH}_3; R_3 = \text{OH}; R_4 = \text{OCH}_3; R_5 = \text{H}; R_6 = \text{H}; R_7 = \text{OCH}_3; R_8 = \text{H}$
 (105) $R_1 = \textit{O}-\text{rut}; R_2 = \text{OH}; R_3 = \text{H}; R_4 = \text{OH}; R_5 = \text{H}; R_6 = \text{H}; R_7 = \text{OH}; R_8 = \text{H}$




(107) $R_1 = R_2 = \text{OH}; R_3 = \text{H}; R_4 = \text{OH}; R_5 = \text{H}; R_6 = \text{OCH}_3; R_7 = \text{OH}; R_8 = \text{H}$




(110) $R_1 = \text{H}; R_2 = \text{OH}; R_3 = \text{H}; R_4 = R_5 = \text{H}; R_6 = \text{OCH}_3; R_7 = \text{OH}; R_8 = \text{H}$



(111) $R_1 = \text{H}; R_2 = \text{CH}_3; R_3 = \text{OCH}_3; R_4 = \text{OH}; R_5 = \text{H}; R_6 = \text{H}$
 (113) $R_1 = \text{CH}_3; R_2 = \text{H}; R_3 = \text{CH}_3; R_4 = \text{OH}; R_5 = \textit{apiose}; R_6 = \text{H}$
 (114) $R_1 = \text{CH}_3; R_2 = \text{H}; R_3 = \text{CH}_3; R_4 = \text{OH}; R_5 = \text{H}; R_6 = \textit{arabinose}$
 (115) $R_1 = \text{H}; R_2 = \text{CH}_3; R_3 = \text{CH}_3; R_4 = \text{OH}; R_5 = \textit{glucose}; R_6 = \textit{arabinose}$




(116)



(117) $R_1 = \textit{glucose}; R_2 = \textit{glucose}$

21. *Marrubium vulgare* L ushbu o‘simlik bilan olib borilgan fitokimyoviy tadqiqotlar, uning tarkibida turli xil moddalar: alkaloidlar, steroidlar, lactonlar, terpenlar, taninlar, qand va vitamini C borligini ko‘rsatdi. *M.Vulgaredan* marrubiin (9) ga qo‘shimcha apigenin (4), apigenin 7-O-glucosid(5), apigenin 7-lactate(118), apigenin 7- (6 -p-coumaroyl) -glucoside (119), luteolin (120), luteolin 7-O-P-D-glucosideo (24), luteolin 7-lactate (121), chrysoeriol (93), quercetin 3-O-a-L-rannosil-glucoside (122), isoquercitrin (91), ursolic kislota (57), galskaya kislota (123), caffeic kislota (124), maleic cafeoil (125), vulgarol (126), vulgarin (127), P-sitosterol (61), stigmasterol (75), vitexin (128), acteoside (12), forsythoside B (15), arenarioside (68), ballotetroside (70), marruboside (129), asetil marruboside (130), pred-marrubiin (62), marrubenol (10), phenylpropanoid esterlar va monoterpenlar hisoblanadi. [22, 22].



Pre-marrubiin (62)

Marrubiin (9)

Pred-marrubindan marrubiin hosil bo‘lishi.

